

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

YUSUPOV NODIR BAXRIDDINOVICH

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNI
VIRTUAL TA'LIM VOSITASIDA KASBIY FAOLIYATGA
TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(texnikumlarning veterinariya meditsinasi ta'lim yo'nalishi misolida)**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UDK 377.36.091.3:004:619-048.32

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Yusupov Nodir Baxriddinovich

Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni virtual ta'lim vositasida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (texnikumlarning veterinariya meditsinasi ta'lim yo'nalishi misolida)..... 3

Юсупов Нодир Бахриддинович

Совершенствование методики подготовки обучающихся к профессиональной деятельности средствами виртуального образования на основе компетентностного подхода (на примере образовательной направления техникумов "Ветеринарная-медицина")..... 25

Yusupov Nodir Bahriddinovich

Improving the methodology of preparing students for professional activity by means of virtual training based on a competence-based approach (on the example of the direction of veterinary and medical education of technical schools)49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

YUSUPOV NODIR BAXRIDDINOVICH

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNI
VIRTUAL TA'LIM VOSITASIDA KASBIY FAOLIYATGA
TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(texnikumlarning veterinariya meditsinasi ta'lim yo'nalishi misolida)**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

Отформатировано: По правому краю

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PHD/Ped5261 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Professional ta’limni rivojlantirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.voicedu.uz) da va “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xolmuxamedov Murodulla Maxmudovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Olimov Qahramon Tanzilovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipova Dilyara Djumaniyazovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Professional ta’limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01-raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “19” aprel soat 14.00. dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Чимбай-2, 96.-uy. Tel: +998 71246-92-17; faks: +998 71246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Professional ta’limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№98 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Olmazor tumani, Чимбай-2, 96.-uy. Tel: +998 71246-92-17; faks: +998 71246-92-17); e-mail:

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.H.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., akademik

S.Y.Ashurova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, p.f.d., professor

X.Sh.Kadirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati Jahon tajribasida professional ta'limga raqamli va elektron ta'lim texnologiyalarini transformatsiyalash, samarali elektron resurslarini ishlab chiqish, o'qitish metodikalarini optimallashtirish, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini tatbiq etish, virtual ta'lim vositalari, elektron ta'lim resurslarining yangi avlodini va ochiq ta'lim modulli multimedia tizimlarini yaratish hamda ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish, pedagogik dizayn, masofaviy ta'lim shakllarini keng joriy qilish, integrativ ta'lim texnologiyalarini (onlayn/oflayn) joriy etish masalalari dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini tashkil etishning eng maqbul metodlarini (multi-level interactive education), samarali modellarini ishlab chiqish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish va amalga oshirishning metodik ta'minotini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga alohida ehtiyoj tug'ilmoqda. Mazkur jihat professional ta'limda mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda ta'lim shakllari va metodlarini modernizatsiyalash, kasbiy kompetentlikni shakllantirish usullarini, ilmiy asoslarini, zamonaviy metodik tizimini takomillashtirish va uni amalga oshirishning pedagogik sharoitlarini belgilash, o'quv materiallarini mazmunan boyitish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Shunday zaruriyatdan kelib chiqib, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rta bo'g'in mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini joriy etish, kasbiy fanlarni o'qitish metodikasi va didaktik vositalarini ishlab chiqish talab etiladi.

Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish va professional ta'limning xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash maqsadida izchil va keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlarida "ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish, davlat ilmiy va innovatsion dasturlari ijrosini muvofiqlashtirish" nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoniga¹ ko'ra, "Professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish" va "barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash" ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash amaliyotiga joriy qilish uchun professional ta'limda mutaxassislarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish zaruriyati mavjud. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. <https://lex.uz/ru/docs/-660041>

отформатировано: Шрифт: Times New Roman

отформатировано: Шрифт: Times New Roman

отформатировано: Шрифт: Times New Roman, Узор: Нет

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

Отформатировано: По правому краю

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5313-sonli, 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-sonli, 2021-yil 29-martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida" gi 163-sonli, 2019-yil 13-maydagi "Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 394-sonli, 2020-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 715-sonli, 2020-yil 19-noyabrdagi "Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning davlat namunasini tasdiqlash haqida" 734-sonli Qarorlari, mazkur sohaga tegishli boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kasb ta'limining shakllanish va rivojlanish jarayoni qonuniyatlari va tendensiyalari, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari R.X.Djurayev, A.R.Xodjaboyev, Z.K.Ismoilova, N.A.Muslimov, U.I.Inoyatov, Q.T.Olimov, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, M.M.Xolmuxamedov, Y.F.Zeyer, I.Y.Lerner, O.A.Abdulina, Y.K.Babanskiy, A.S.Belkin, G.N.Jukov, I.S.Yakimanskiy, A.A.Verbitskiy, V.P.Bespalko, A.V.Doljenko, V.A.Slastyonin va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Kasb-hunar kollejlari umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini samarali o'qitish va ishlab chiqarish ta'limini takomillashtirish muammolari bo'yicha O.A.Abdugudusov, Q.M.Abdullayeva, S.Y.Ashurova, N.N.Karimova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Kasb-hunar ta'limida "Kompetensiya", "Kompetentlilik" va "Tayanch kompetensiya" kabi tushunchalarning mazmun va mohiyatini o'rganish va tadqiq qilish, shakllantirish, rivojlantirish hamda tashhishlash masalalarida respublikamiz olimlaridan N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov, M.M.Xolmuxamedov, N.N.Karimova, Y.R.Najmiddinova, J.R.Turmatov, R.X.Fayzullayev, K.T.Umataliyevlar, MDH va xorijiy mamlakatlardan V.I.Baydenko,

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

A.A.Verbitskiy, N.A.Grishina, Y.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, O.N.Yarigin, N.V.Kuzmina, A.I.Kuleshova, A.K.Markova, N.V.Skachkova, A.V.Xutorskiy, C.R.Berger, W.Grabe, J.Harmer va boshqalar tadqiqot o'tkazganlar.

Professional ta'limda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari bo'yicha N.A.Muslimov, M.M.Xolmuxamedov, T.V.Gorbunova, T.V.Ozerova, D.V.Sannikov, P.S.Samorodskiy, V.A.Tereshkov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. M.M.Xolmuxamedovning doktorlik ishida ta'lim natijalari (Learning outcomes) asosida professional ta'limda bilim, ko'nikma va malakalar evolyutsiyasini turkum kompetensiyalarga transformatsiyalash natijasida o'quv jarayonining didaktik bosqichlarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Olib borilgan izlanishlar va tahlillar natijasida professional ta'limda mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni virtual ta'lim vositasida kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari yetarlicha ochib berilmaganligi ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta'limni rivojlantirish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Energiya jihatidan samarador texnologiyalarni joriy qilish sharoitida qurilish tarmog'i uchun malakali kadrlarni ijtimoiy sheriklik asosida tayyorlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" (2021-2023-yy.) mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kompetensiyaviy yondashuv asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini va holatini aniqlash hamda ilmiy tadqiqot ishlari tahlilini o'tkazish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy metodik modelini ishlab chiqish;

professional ta'limda o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiluvchi virtual ta'lim vositalari hamda o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish va amaliyotga joriy etish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida professional ta'limda o'quvchilarni kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajalarini aniqlash va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarni virtual ta'lim vositalarini qo'llagan holda kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Sirdaryo agrotexnologiyalar, G'allaorol agrotexnologiyalar, Samarqand veterinariya meditsinasi hamda Romitan

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

Отформатировано: По правому краю

agrotexnologiyalar texnikumlaridan tajriba-sinov ishlariga 346 nafar respondent – o‘quvchi jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarni virtual ta‘lim vositasida kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmuni, shakli, vosita va shart-sharoitlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida mavzuga oid falsafiy, pedagogik va psixologik manbalar, DTS, malaka talablari, kasbiy standart, o‘quv rejalari, o‘quv dasturi va modullar mazmunini qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, modellashtirish (loyihalash), pedagogik-ijtimoiy (test, anketa-so‘rov, suhbat, kuzatish) va tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish va natijalarini matematik-iqtisodiy va statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

professional ta‘lim muassasalarida bo‘lajak veterinarlarni tayyorlash jarayonini tahlil va sintez qilish, ijodiy faollik, konvergent, divergent fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning didaktik ta‘minoti virtual ta‘lim vositalari asosida takomillashtirilgan;

professional ta‘limda bo‘lajak veterinarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy modeli, maqsadli, mazmunli, jarayonli va baholovchi komponentlar uzviyligida hamda virtual ta‘lim vositalarining moslashuvchanlik, uzluksizlik, ochiqlilik, interaktivlik imkoniyatlari ta‘lim mazmuniga maqsadli singdirish orqali takomillashtirilgan;

professional ta‘lim muassasalarida bo‘lajak veterinarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi tizimlilik, izchillik, o‘quv materialining o‘zaro ta‘siri, muvofiqlik, vizual o‘qitish tamoyillariga ustuvorlik berish orqali virtual laboratoriyalarning imkoniyatini darajalash asosida takomillashtirilgan;

professional ta‘lim muassasalarida bo‘lajak veterinarlarni kasbiy kompetentligi rivojlanganligining motivatsion, kognitiv va kreativ mezonlari, baholash tizimi va indikatorlari prognoz parametrlarining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga ustuvorlik berish asosida optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

professional ta‘lim muassasalari 5.63.01.01 – Veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishida “Veterinariya mikrobiologiyasi” mutaxassislik fani o‘quv-metodik ta‘minoti, virtual ta‘lim vositalaridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan metodik qo‘llanmalar yaratilgan;

professional ta‘lim muassasalari 5.63.01.01 – Veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi o‘quvchilari uchun “Veterinariya mikrobiologiyasi” mutaxassislik fani bo‘yicha virtual ta‘lim vositalari asosida takomillashtirilgan dars o‘tish metodikasi ishlab chiqilgan;

professional ta‘lim muassasalari 5.63.01.01 – Veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishida o‘qitiladigan “Veterinariya mikrobiologiyasi” mutaxassislik fani bo‘yicha virtual laboratoriyalar majmuasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi olingan natijalarni o‘zida aks ettirgan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-metodik va ilmiy-amaliy anjumanlar

materiallari to'plamlari, O'zR OAK tasarrufidagi hamda xorijiy ilmiy-uslubiy jurnallarda nashr etilgan ilmiy va ilmiy-metodik maqolalar, tadqiqot muammosi bo'yicha o'tkazilgan anketa so'rovlari, tajriba-sinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik usullar asosida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mutaxassislik fanlari, xususan, "Veterinariya mikrobiologiyasi" fanida virtual ta'lim vositalaridan samarali foydalanish shakllari va texnologiyalari asosida o'quvchilarda divergent, fazoviy va texnik fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirish, ularning axborot bilan ishlash kompetentligini rivojlantirish, 5.63.01.01 – Veterinariya meditsinasi (hayvonot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishida multimedia, virtual laboratoriya, animatsiyalar negizidagi interaktiv virtual ta'lim vositalaridan foydalanishga yo'naltirilgan o'qitish metodikasining mazmuni va texnologik asoslarini takomillashtirishda foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati virtual ta'lim vositalaridan samarali foydalanish maqsadida yaratilgan virtual ta'lim vositalari mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasining metodik ta'minotini mustahkamlashga xizmat qilishi va professional ta'lim muassasalarida bo'lajak veterinarlarni tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha nazariy hamda uslubiy tavsiyalar keltirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Professional ta'lim muassasalarida virtual ta'lim vositalari asosida mutaxassislik fanlarini o'qitish orqali bo'lajak veterinarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

professional ta'lim muassasalarida bo'lajak veterinarlarni tayyorlash jarayonini tahlil va sintez qilish, ijodiy faollik, konvergent, divergent fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik ta'minoti virtual ta'lim vositalari asosida takomillashtirishga oid takliflardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta'limni rivojlantirish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2021-2023-yillarda bajarilgan "Energiya jihatidan samarador texnologiyalarni joriy qilish sharoitida qurilish tarmog'i uchun malakali kadrlarni ijtimoiy sheriklik asosida tayyorlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan. (Professional ta'limni rivojlantirish institutining 2023-yil 05 sentabrdagi ZX-01/01-116-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu taklif professional ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'qitish orqali bo'lajak veterinarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

professional ta'limda bo'lajak veterinarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy metodik modeli, maqsadli, mazmunli, jarayonli va baholovchi komponentlar uzviyligida hamda virtual ta'lim vositalarining moslashuvchanlik, uzluksizlik, ochiqlilik, interaktivlik imkoniyatlari ta'lim mazmuniga singdirish orqali takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar va takliflar Sirdaryo

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

Отформатировано: По правому краю



agrotexnologiyalar, G'allaorol agrotexnologiyalar, Samarqand veterinariya meditsinasi hamda Romitan agrotexnologiyalar texnikumlarining o'quv jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 3-iyuldagi 02/17-1302-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, professional ta'limda bo'lajak veterinarlarda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga erishilgan;

professional ta'lim muassasalarida bo'lajak veterinarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi tizimlilik, izchillik, o'quv materialining o'zaro ta'siri, muvofiqlik, vizual o'qitish tamoyillariga ustuvorlik berish orqali virtual laboratoriyalarning imkoniyatini darajalash asosida takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar va takliflardan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta'limni rivojlantirish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2021-2023-yillarda bajarilgan "Energiya jihatidan samarador texnologiyalarni joriy qilish sharoitida qurilish tarmog'i uchun malakali kadrlarni ijtimoiy sheriklik asosida tayyorlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan. (Professional ta'limni rivojlantirish institutining 2023-yil 05 sentabrdagi ZX-01/01-116-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur taklif va tavsiyalar o'quvchilarning mustaqil ta'limiy faoliyatini rivojlantirishga, bo'lajak veterinarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qilgan;

professional ta'lim muassasalarida bo'lajak veterinarlarning kasbiy kompetentligi rivojlanganligining motivatsion, kognitiv va kreativ mezonlari, baholash tizimi va indikatorlari prognoz parametrlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga ustuvorlik berish asosida optimallashtirishga oid takliflardan Sirdaryo agrotexnologiyalar, G'allaorol agrotexnologiyalar, Samarqand veterinariya meditsinasi hamda Romitan agrotexnologiyalar texnikumlarining o'quv jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 3-iyuldagi 02/17-1302-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy kompetentligi rivojlanganligining motivatsion, kognitiv va kreativ mezonlari, baholash tizimini optimallashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilib, ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 20 ta ilmiy-metodik ishlar nashr etilgan bo'lib, shundan 1 tasi o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlar orqali 6 ta maqola (4 ta – respublika, 2 ta – xorijiy jurnallarda) chop etilgan, Respublika Intellektual mulk agentligidan 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etadi.

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘ekti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kompetensiyaviy yondashuv asosida professional ta‘limda o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida professional ta‘lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy holati va muammolari, professional ta‘limda o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda virtual laboratoriyalarning o‘rni va roli hamda professional ta‘limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, tuzilmasini ishlab shiqish haqida fikr yuritilgan.

Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida iqtisodiyot uchun veterinarlarni tayyorlashni nazarda tutuvchi professional ta‘lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta‘minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy ta‘lim mazmunini modernizatsiyalash, o‘quvchilar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta‘lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda professional ta‘lim tizimi taraqqiyotning yangi – raqamlashtirish bosqichiga o‘tayotgan jamiyat ehtiyojlariga muvofiqlashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” hamda “ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Professional ta‘lim muassasalarining 5.63.01.01 – Veterinariya meditsinasi ta‘lim yo‘nalishida tahsil oluvchi bo‘lajak veterinarlarga ta‘lim berishda kompyuter texnologiyalari (ular yordamida yaratilgan virtual ta‘lim vositalari) ni keng ko‘lamda tatbiq etish bugungi kunning global tendensiyalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, professional ta‘lim muassasalari veterinariya ta‘limida virtual ta‘lim vositalaridan foydalangan holda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish – dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu muammolarning yechimi har bir o‘quvchining individual ta‘lim olishini ta‘minlash va keyingi kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan o‘quv resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratishdan iborat.

O‘quv jarayoniga virtual ta‘lim vositalarini joriy etishni takomillashtirish

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

Отформатировано: По правому краю

uchun dastlab elektron ta'limni joriy etishga oid tadqiqotchilarning ilmiy-uslubiy adabiyotlarini tahlil qilish va ular ko'rsatib o'tgan pedagogik va psixologik muammolar hamda ularning yechimlarini o'rganishni lozim deb topib, bunda quyidagi turkum muammolar borligi aniqlandi:

yaratiladigan dasturiy vositalarga pedagogik va psixologik yondashuvning yo'qligi;

professional ta'lim muassasalari o'qituvchilarida kompyuter savodxonligining yetarli darajada emasligi;

professional ta'lim muassasalarida zamon talabiga moslashtirilgan elektron o'quv-metodik majmualarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;


professional ta'lim muassasalari o'qituvchilarida pedagogik dasturiy vositalarni qo'llash tajribasining yetishmasligi;

professional ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limdan foydalanish uchun zamonaviy dasturiy vositalar hamda ularni qo'llashga oid ilmiy ishlanmalarning yetishmasligi;

professional ta'lim muassasalarida yagona metodologik o'qitish talablari va tizimining mavjud emasligi;

professional ta'lim muassasalarida kompyuterning pedagogik dasturiy vositalarini o'quv jarayoniga qo'llash metodikasining to'liq ilmiy asoslanmaganligi.

Yuqorida keltirib o'tilgan muammolarning yechimi bir qator o'ziga xos talab va sharoitlarga bog'liq. Ya'ni virtual ta'lim vositalarini yaratishning didaktik, psixologik va psixofiziologik talab hamda tamoyillariga tayangan holda quyidagi virtual ta'lim vositalarini loyihalashtirish lozim (*1-rasm*).



1-rasm. Veterinariya mikrobiologiyasi fanidan virtual ta'limning tashkiliy vositalari

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

Ushbu 1-rasmda ko'rsatilgan virtual ta'lim vositalarini loyihalashtirishda ishchi jamoa turli xil mutaxassislardan tashkil topishi, ya'ni biologiya, pedagogika va psixologiya fani professor-o'qituvchilari, dasturchi hamda dizayner bo'lishi talab etiladi. Mazkur jamoa yordamida Veterinariya mikrobiologiyasi fanidan o'quvchilar uchun pedagogik va psixologik talablarga to'liq javob beruvchi virtual ta'lim vositalarini yaratish imkoniyati tug'iladi.


Bizning fikrimizcha, professional ta'lim muassasalarida bo'lajak veterinarlarga o'qitiladigan Veterinariya mikrobiologiyasi fanidan zamon talablariga mos virtual ta'lim vositalarini yaratish quyidagi tartibda amalga oshirilishi lozim:

- Virtual ta'lim yaratiladigan mavzularni aniqlash;
- Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalarini tanlash;
- Virtual ta'limning maqsadi va mavzusiga loyiq qamrovni tanlash;
- Virtual ta'limning ssenariysi va tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqish;
- O'quv materialini tanlash;
- O'quv materiallarining tuzilmasini ishlab chiqish;
- Multimedia komponentini ishlab chiqish;
- Aprobatsiyadan o'tkazish;

Hujjatlashtirish (intellektual mulk agentligidan rasmiy ro'yxatdan o'tkazish, mualliflik huquqini belgilash).

Ushbu bosqich asosida o'quv ma'lumotining tayyorlanishi qabul qilish va taqdim etish uchun zamonaviy o'quv ilmiy kurslariga yo'naltirilishi lozim.

Biologiya turkumiga kiruvchi fanlarni, jumladan "Veterinariya mikrobiologiyasi" fanini professional ta'lim muassasalarida 5.63.01.01 – Veterinariya meditsinasi ta'lim yo'nalishi o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida virtual ta'lim vositalaridan foydalanish usullarini yanada takomillashtirish lozim. Ayni paytda, Veterinariya mikrobiologiyasi fanini o'qitishda virtual ta'lim vositalaridan foydalanishning ikki xil usuli mavjud (*2-rasm*).



отформатировано: Шрифт: 10 пт

отформатировано: Шрифт: 9 пт

2-rasm. Veterinariya mikrobiologiyasi fanini o'qitish samaradorligini oshirishda virtual ta'lim vositalaridan foydalanish usullari

Agar biz internet tarmog'iga mo'ljallangan ochiq ta'lim muhitida masofaviy virtual ta'lim vositalarini ta'lim tizimiga joriy etsak, unda keng qamrovli (tarmoqqa joylashtirilgan virtual ta'lim vositalarini istalgan vaqtda va joyda yuklab olib yoki masofaviy foydalanish) imkoniyatlarga ega bo'lamiz.

Veterinariya mikrobiologiyasi fanidan didaktik namuna sifatida xizmat qiladigan, masofaviy virtual ta'lim vositalarini qo'llash uchun yagona tayanch tizimi joriy etilmagan. Veterinariya meditsinasi ta'limi sohasini isloh qilishning asosiy bosqichlaridan biri – bu zamonaviy virtual ta'lim vositalarini keng joriy etish orqali amalga oshirish mumkin. Bunda quyidagi asosiy vazifalar bajariladi (1-jadval).

1-jadval

Virtual ta'lim vositasining vazifalari va imkoniyatlari

Vazifasi	Imkoniyati
Perseptiv-mnemonik	O'quvchilarning Veterinariya mikrobiologiyasi faniga oid tushunchalarini kengaytiradi
Didaktik	O'quvchilarning Veterinariya mikrobiologiyasi faniga oid yangi bilim olishlari uchun kognitiv jarayonni rivojlantiradi
Rivojlantiruvchi	O'quvchilarning Veterinariya mikrobiologiyasi faniga oid tushuncha va ko'nikmalarini rivojlantiradi
Maqsadlantiruvchi	O'quvchilarning Veterinariya mikrobiologiyasi faniga oid qiziquvchanligini oshiradi va qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

Evristik	O'quvchilarda Veterinariya mikrobiologiyasiga oid aqliy qiyinchilik vaziyatini yaratadi
Illyustrativ (ko'rgazmali)	O'quvchilarning Veterinariya mikrobiologiyasiga oid bilimlarni qulay va tez qabul qilishini ta'minlaydi
Tarbiyalovchi	O'quvchilarda mikrobiologiyaga oid yaratuvchanlik va qiziquvchanlikni oshiradi.

Umuman olganda, professional ta'lim muassasalarida 5.63.01.01 – Veterinariya meditsinasi yo'nalishi o'quvchilariga o'qitiladigan Veterinariya mikrobiologiyasi fanini internet tarmog'i orqali masofaviy o'qitish imkoniyatlarini tahlil qilish natijasida quyidagi afzalliklarni ajratib ko'rsatish mumkin:

moslashuvchanlik, qulay vaqtda va joyda foydalanish imkoniyati;

tartibga solinmagan vaqt;

modullik va o'zgaruvchanlik. Mustaqil o'quv kurslari (modullar)dan individual yoki guruh ehtiyojlariga javob beradigan o'quv rejasini tuzish qobiliyati;

parallel. Kasbiy faoliyat bilan parallel ravishda, ya'ni ishdan ajralmagan holda, ularning ta'lim darajasini doimiy ravishda oshirish imkoniyati;

keng qamrov. O'quvchilarning bir vaqtning o'zida ko'plab ma'lumotlar (elektron kutubxonalar, ma'lumotlar bazalari va boshqalar) ga murojaat qilishi;

tarmoq orqali bir-birlari va professor-o'qituvchilar bilan aloqa qilishi;

global auditoriyaning potensial kengayishi;

rentabellik. O'quv va texnik vositalardan unumli foydalanish, yaxlit taqdim etish, unga kirish imkoniyatini oshirish va mutaxassislarni tayyorlash xarajatlarini kamaytiradi;

ishlab chiqarish qobiliyati. O'quv jarayoniga insoniyatning muhim postindustrial axborot makonida olg'a siljishga hissa qo'shadigan ilg'or pedagogik va ilmiy-texnikaviy yutuqlardan, zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

kompyuter uskunalari va operatsion tizimlar bilan muvofiqlik muammolarining yo'qligi;

ijtimoiy tenglik. O'quvchining yashash joyidan, sog'lig'idan va moddiy xavfsizligidan qat'i nazar, teng imkoniyatlarga ega bo'lishi;

tarkibni yangilash qulayligi va eski materialni arxivlash imkoniyati;

o'qitishdagi mustaqillikni rag'batlantirish, tanqidiy fikrlash qobiliyati, o'quv intizomi, o'zini-o'zi tarbiyalash va mas'uliyatliligi hamda maqsadga erishishda qat'iyiligi;

masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda tinglovchilarda qat'iyatlilik, mas'uliyat, konstruktiv qarorlar qabul qilish qobiliyati, shuningdek, aql-zakovat kabi fazilatlarini rivojlantiradi va mustahkamlaydi.

Yuqorida qayd etilgan afzalliklariga qaramay, uning bir qancha kamchiliklari ham mavjud:

elektron aloqa va o'qitish vositalariga ishonchning yo'qligi;

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

Отформатировано: По правому краю

o'quvchilar professor-o'qituvchi bilan jonli muloqot qilish imkoniyatiga ega emasligi;

mashg'ulotning muvaffaqiyati qisman kompyuterni boshqarish, internetda ishlash va texnik qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi;

haqiqiy (virtual emas) laboratoriya ishlarini bajarish paytida olinadigan bir qator amaliy ko'nikmalarning yo'qligi;

ba'zi hollarda internetda ishlash jarayonida kelib chiqadigan muammolarning mavjudligi;

o'quv jarayonida fikrlar xilma-xilligining kamligi;

o'quv qo'llanmalarga bo'lgan uslubiy talablar, professor-o'qituvchilar yo'qligida o'quv jarayonini boshqarish funksiyalarini to'liq o'z zimmasiga oladigan, o'rganilayotgan materialni yaxlit ifodalash uchun mualliflar imkoniyatlarining cheklanganligi.


Biz tadqiqot ishi davomida bo'lajak veterinarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda Veterinariya mikrobiologiyasi fanini virtual ta'lim vositalari asosida tashkil etish tuzilmasini ishlab chiqdik (**3-rasm**).

Ushbu bo'lajak veterinarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda Veterinariya mikrobiologiyasi fanidan masofaviy o'qitishga mo'ljallangan virtual ta'lim jarayonining asosiy jihati virtual ta'lim vositalarining didaktik asoslarini rivojlantirishdan iborat. Virtual ta'lim vositalari asosida bo'lajak veterinarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirish uchun yuqorida e'tirof etilgan talablar va tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bunda o'quvchilar fanni mustaqil o'rganish, unda kechadigan jarayonlarning virtual obrazini bir necha marotaba ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada bo'lajak veterinarlarning Veterinariya mikrobiologiyasi fanini o'zlashtirish sifat-samaradorligi oshadi.

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт



3-rasm. Bo'lajak veterinarlarga Veterinariya mikrobiologiyasi fanidan virtual ta'lim jarayonining tarkibiy tuzilmasi


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Professional ta'limda o'quvchilarni virtual ta'lim vositalari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi**” deb nomlanib, ushbu bobda professional ta'limda o'quvchilarni virtual ta'lim vositalari asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli, professional ta'lim muassasalarida virtual ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi hamda mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak veterinarlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari bayon etilgan.

Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning faolligi va o'quv faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi, mutaxassislik fanlarini (Veterinariya mikrobiologiyasi) o'qitishda virtual ta'lim vositalarining samaradorligiga va ulardan foydalanib ma'ruza, laboratoriya mashg'ulotlari hamda o'quvchilar mustaqil ishining samarali tashkil etilishiga zamin yaratiladi. Shu bois, tadqiqot doirasida virtual ta'lim vositalaridan foydalanib o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy modeli ishlab chiqildi (**4-rasm**).

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

Отформатировано: По правому краю



4-rasm. Virtual ta'lim vositalari asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzilmaviy modeli

отформатировано: Шрифт: 12 пт

отформатировано: Шрифт: 12 пт

Ushbu modelning har bir tashkil etuvchi komponentlari (maqsadli, mazmunli, jarayonli, baholash) didaktik vositalar, o'quv jarayonidagi funksiyalar, tamoyillar, yondashuvlar, didaktik shartlar, o'quv jarayonida amalga oshirilishi, baholash jarayoni, mezonlari, masofaviy ta'lim, darajalari, natijalaridan iborat.

Maqsadli blokda keltirilgan o'quvchilarga Veterinariya mikrobiologiyasi mutaxassislik fani hamda mutaxassislik fanlarini o'qitishda ushbu fanlarning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirishdan maqsad mavjud axborot-metodik ta'minotda va fanlar kontingetida "Veterinariya mikrobiologiyasi" va mutaxassislik fanlardan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni hosil qilish. O'quvchilar o'rgangan mavzulari mohiyatidan kelib chiqqan holda, ushbu bilimlardan kasbiy faoliyatlarida qanday foydalanishlarini tasavvur qilishlari, yetarli bilimlarga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur.

Modelda mazmunli komponent sifatida Veterinariya mikrobiologiyasi fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarida virtual axborot-o'quv platformasi va unga birlashtirilgan barcha nazariy ma'lumotlar hamda virtual laboratoriyalar kompleksidan foydalanish, o'quv jarayonidagi funksiyalar komponentlari sifatida axborotni vizual taqdim etish, sub'ektlar orasida teskari aloqani amalga oshirish, frontal, guruhda va individual ishlashni ta'minlash, didaktik imkoniyatlar komponentlari sifatida moslashuvchanlik, o'quv siklining to'liqligi, uzluksizligi, topshiriqning to'g'ri bajarilishini nazorat qilish mumkinligi, ochiqdigi, interaktivligi, prinsiplari komponentlari ilmiylik, tizimlilik va izchillik, o'quv materialining o'zaro ta'siri, muvofiqlik, vizual o'qitish, mustaqil ta'lim olish, qiziqtirish, ergonomik, maxsus prinsiplarga: uch o'lchovlilik, variativlik, mustaqil faoliyat kabi komponentlariga ajratilgan.

Modelning jarayonli komponentida o'quv jarayonini amalga oshirish shakli jihatidan an'anaviy darslarda yoki masofaviy o'qitishda ham foydalanish mumkin. Virtual laboratoriyalardan foydalanib, o'qitishda pedagogik interaktiv (Blended learning, Consulting, Project-Based Learning, Cooperative Learning, Design tinkering) metodlardan foydalanish orqali samarali natijalarga erishiladi. Baholash blokida o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlik malakalari shakllanganligi darajalarini (yuqori, o'rta va past) kompleks aniqlashga mo'ljallangan baholash mezonlari (motivatsion, kognitiv, kreativ) ishlab chiqilgan.

Professional ta'lim muassasalarida veterinariya mikrobiologiyasi fanidan ma'ruza darslarini o'qitish sifatini yanada takomillashtirish uchun o'qituvchilar oldiga quyidagi vazifa va talablar qo'yilishi:

rivojlanayotgan jamiyatimizda o'zining ijodiy qobiliyatini namoyon qila olishi;

Veterinariya mikrobiologiyasi faniga oid ilmiy yangiliklardan voqif bo'lishi;

bo'lajak veterinarlarni professional dunyoqarashini shakllanishi;

o'quvchilarni ta'lim sohasida shaxs sifatida shakllanish jarayoniga jalb eta olishi;

Veterinariya mikrobiologiyasi fanini o'qitishda yangi axborot texnologiyalari vositalarini qo'llashning asosiy tamoyillariga oid bilimlarga ega bo'lishi;

o'quvchilarning mutaxassisligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, asosiy pedagogik hamda ijodiy muammolarni hal etishda ko'nikma va malakalarini rivojlantirishi;

o'quvchilarning veterinariya mikrobiologiyasi sohasida nazariy va ilmiy bilimlarini shakllantirishga oid mexanizmlarni ishlab chiqishi;

o'quvchilarni mustaqil faoliyatga tayyorlashi lozim.

Nazariy mashg'ulotlarida o'qituvchi berilayotgan materialni turli xil ko'rinishda (nutqning past yoki yuqoriligi, takrorlash va h.k.) bayon etishi mumkin. Boshqa tomondan, o'qituvchi o'quvchilarda mavzuga oid ma'lumotlarga qanchalik darajada ehtiyoj mavjudligini aniq bilmasligi mumkin. Bunga o'quvchilarning nazariy darslarini ma'lum qismlariga faol ishtirok etmaganligi sababdir. Natijada darsdan darsgacha bo'lgan o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish imkoniga ega bo'lmaslik holatlariga olib keladi.

Virtual ta'lim vositalari asosida o'quvchilar uchun tashkil etilgan ta'lim kunduzgi bo'lim uchun yoki fanning mustaqil ta'lim tizimini to'ldiruvchi (yordamchi) vosita bo'lib xizmat qiladi.

Veterinariya mikrobiologiyasi fanidan o'quvchilarning ko'nikmalarini shakllantirish uchun mustaqil ish faoliyatini tashkil etish lozim. Bunda ular o'z faoliyatini tahlil qilish, umumlashtirish, ma'lumotlarni to'plash, ma'lum tartibga keltirish va o'quv ma'lumotini xotirada saqlash kabi imkoniyatlarga ega bo'ladilar. O'quvchilarning Veterinariya mikrobiologiyasi fanidan bilim olishlari nazariy va laboratoriya mashg'ulotlari bilan mustaqil ta'lim faoliyatida o'quv ma'lumotlarini qabul qilish, qayta ishlash, uning muhim jihatlari ajratish, yangi o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini oldingisi bilan o'zaro bog'lash, umumlashtirish, takrorlash, ularni amalga tatbiq etish orqali shakllanadi va rivojlanadi.

Buni Veterinariya mikrobiologiyasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuterning pedagogik dasturiy vositalari yordamida virtual ta'lim vositalarini yaratish va foydalanishning tuzilmasi misolida ko'rish mumkin (*5-rasm*).

Ushbu tuzilma asosida o'quvchi Veterinariya mikrobiologiyasi fanidan mustaqil ta'lim olish uchun dastlab virtual ta'lim vositalari yordamida mavzularni o'rganadi. Undan so'ng, kompyuterning amaliy dasturlari yordamida pedagogik dasturiy va virtual ta'lim vositalarini yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi.

